

**OMON-QO'TONDA O'ZBEKISTON-POLSHA VA O'ZBEKISTON-AQSH  
XALQARO ARXELOGIK EKSPEDISIYALARI TADQIQOTLARI  
NATIJALARI**

Amirov Zarvesh Zarif o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabasi



**Annotatsiya:**

Maqola Samarqand viloyati Urgut tumanidagi O'rta Osiyoning eng qadimgi manzilgohlkaridan biri Omon-Qo'ton g'orida amalga oshirilgan O'zbekiston-Polsha va O'zbekiston-AQSh xalqaro arxeologik ekspedisiyalari tadqiqotlari haqida bo'lib, manzilgoh tarixiga doir qiziqarli tarixiy ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Urgut, Omon-Qo'ton g'ori, T. Madeyskaya, D.N.Lev, O'zbekiston-Polsha, O'zbekiston-AQSh, xalqaro arxeologik ekspedisiyalar, Zarashon, o'rta paleolit.

A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat Universiteti geologlari bilan suhbatda biz Samarqanddan janubroqdagi Omon Qo'ton hududida hamda Taxti Qoracha davoni orqasida karstli g'orlar borligini bilib oldik. Ushbu ma'lumotlarni tekshirib ko'rish maqsadida D.N. Lev tarix fakultetining bir guruh talabalari hamkorligida 1947 yilning 30 martida Omon-Qo'ton qishlog'iiga tashrif buyurdi. Mahalliy aholidan, xususan yosh ishchi Hasanovdan surishtirish natijasida Omon-Qo'ton qishlog'i yaqinida ikkita g'or borligi aniqlandi. Ulardan biri qishloqdan bir necha km shimolroqda, Omon-Qo'ton arig'inining chap sohilida joylashgan. Rekognostik . tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu tektonik harakatlar tufayli hosil bo'lgan kichik yoriq ekanligi aniqlandi. Ikkinci g'or esa Samarqand shahridan 45 km janubda, qishloqdan 2 km masofada va Bulbulsoy tog'laridagi darada joylashgan. Uning dengiz sathidan balandligi axminan 1300 m. Bu yerda olib borilgan dastlabki qidiruv ishlari uning mramorlashgan oxaktoshdan hosil bo'lgan karstli g'or bo'lganligini va unda qadimgi tosh davri odamlari yashaganligi ma'lum bo'ldi.

Yillar davomida ushbu manzilgoh bir necha bor tadqiq etildi. 1995 yilda O'zbek-Polsha ekspedisiyasi xodimlari tomonidan D.N. Lev tomonidan ochilgan o'rta



paleolit davriga oid Omon-Qo'ton g'or makoni tadqiq qilindi[1]. Natijada, g'orning kirish qismidan 7-8 m ichkariroqdan va uning chap devori tomonidan qo'ng'ir loyli buzilmagan maydon aniqlandi. Ushbu maydon g'orning devoriga juda yaqin joylashgan. Bu joydan bir nechta hayvon suyaklari qoldiqlari hamda stalaktitlar bo'laklari topildi. Bu joydagi loy va stalaktitlardan bir bo'lagi analiz qilish uchun na'muna sifatida olindi. Ikkinchchi na'muna g'orning kirish qismiga yaqin o'ng devori tagidan, uchinchi na'muna esa g'orning ancha ichkarisidan olindi. Polshalik prof. T. Madeyskayaning ta'kidlashicha, g'orda ikki xil davrga oid generasiya kuzatiladi. G'or to'liq o'rganilgan deb hisoblanishiga qaramasdan, uning ayrim joylarida inson faoliyati qoldiqlarini hamda g'orda istiqomat qilgan hayvonlar izlarini saqlab qolgan hamda qazilmagan maydonchalarni uchratish mumkin. G'ordan absolyut sanalar olish muhimligi va buning barcha imkoniyatlari mavjudligi ko'rinish turardi. Negaki, Zarafshon vohasi paleolit davri yodgorliklari aksariyatining sanasi nisbiyligicha qolmoqda edi [2].

2001 yilda O'zbekistonda qadimgi tosh davrini o'rganish bo'yicha qo'shma O'zbek-Amerika xalqaro talabalar ilmiy-arxeologik ekspedisiyasi Zarafshon tog'tizmasining shimoliy yon-bag'irlaridagi g'orlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Tadqiqot natijalari qator ilmiy hisobotlarda o'z aksini topgan [3]. Dasturga muvofiq ushbu hududlarda nafaqat qadimgi odamlar yashagan g'orlarni qidirib topish, balki atrof-muhitning paleoekologiyasini ham o'rganish maqsad qilib olindi. Buning uchun g'orlardagi qatlamlar tarkibini tahlil qilish, qadimgi fauna-florani hamda paleoiqlimni o'rganish ko'zda tutildi.

O'zbek-Amerika ekspedisiyasi o'z payftida D.N.Lev tomonidan o'rganilgan Omon-Qo'ton g'orida stasionar tadqiqot ishlari olib bordi[4]. D.N. Lev tomonidan g'orning pleystosen davriga oid qatlamlari to'liq qazib o'rganilgan va hozirda g'or ichi yana tuproq qatlamlari bilan to'lgan. Bu to'lg'azmalar qizil g'ovak tuproqdan iborat bo'lib, unda hayvon suyaklari qoldiqlari ham uchraydi. Biroq, g'orning devori bo'ylab ayrim joylarida pleystosen davri qatlamlari teginilmay qolib ketganligi aniqlandi. Bunday maydonlarni tozalash natijasida bir vaqtlar omonqo'tonliklarning ov obyekti hisoblangan bir nechta yovvoyi hayvon suyaklari qoldiqlari topildi.

Ammo, asosiy e'tibor g'orning old qismidagi unga kirishdan janubi-g'arbda joylashgan maydonni o'rganishga qaratildi. Bu yerda bir vaqtlar D.N. Lev tomonidan amalga oshirilgan qazishmalardan chiqarib tashlangan tuproqda hayvon

suyaklari qoldiqlari saqlangan edi [5]. Natijada bir nechta hayvon suyaklari qoldiqlari va bir dona uchirindi topildi. Bu yerda g'orning tomidan qulab tushgan qizg'ish tuproq qoldiqlari ham bo'lib, ular to'rtlamchi davrga oid edi va ularda maydalangan yovvoyi hayvonlar suyaklari, ayrim tishlari saqlanib qolgan. Ular XX asrning 40-50 yillardagi qazish uslublarining nomukammalligi oqibatida o'tkazib yuborilgan.

Omon-Qo'tondan atigi 3 ta buyum yig'ib olindi. Ulardan biri qirralari qo'pol retushlangan mustye davri plastinasidir. Ikkinci buyum, zarb maydonchasi atayin sindirilgan uchirindi hisoblanadi. Har ikkala buyum ham qattiq qora rangli vulqonli jinsdan ishlangan. To'plamdag'i uchinchi buyum – uncha katta bo'limgan uchburchaksimon uchirindi bo'lib, u gardishsimon o'zakdan chaqmoqlab olingan. Ushbu buyum kulrang yashil tusli qayroqtoshdan ishlangan.

Ma'lumki, oxirigacha qazib tugatilgan yodgorliklar "o'lik yodgorliklar" hisoblanadi. Biroq, O'zbek-Polsha hamda O'zbek-Amerika ekspedisiyalarining tadqiqotlari Zarafshon vohasidagi Omon-Qo'ton makonida teginilmagan maydonlarning saqlanib qolganligini va unda ayrim tadqiqot ishlarini davom ettirish mumkinligini tasdiqlashi, quvonarli holdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) // Труды Узбекского гос. Ун-та. Нов. Серия. Вып. 61. 1956;
2. Гречкина Т.Ю., Хужаназаров М., Худайбердиев Р., Мадейская Т., Шимчак К., Миловский М., Кауван Г., Давандовский М., Багинская С. Научный отчет об археологических работах Зарафшанского палеолитического отряда в 1995 году. – Самарканд, 1996. – С. 8-9;
3. Сулейманов Р.Х., Тойчиев Х.А., Ташкенбаев Н.Х., Джуракулов М.Дж., Холматов Н.У., Крахмаль К.А., Ибрагимов Р.З., Глантз М., Шраубер А.Х., Бургер О.Ф., Циммерман Х.П. Отчет по результатам полевых исследований совместной эколого-археологической экспедиции по изучению памятников каменного века. – Ташкент, (май-июнь, 2001 г). Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №160. – С. 2-13; Сулейманов Р.Х., Гланц М., Шраубер А.Д., Бургер О.Ф., Циммерман Х.П. Исследования пещер северных склонов Зарафшанского хребта в 2001 г. ИМКУ №34. – Самарканд, 2004. – С. 6-10; Сулейманов Р.Х., Хасанов М., Аминов Б., Шоназаров Ш., Ибрагимов Р.З.,





Крахмаль К.А. Отчет по результатам полевых исследований совместной эколого-археологической экспедиции по изучению памятников долины Кашкадарьи. Ташкент, (сентябрь-октябрь, 2001г). Научный архив ИА АН РУз. Фонд 03. 01. №124. С. 15 – 17;

4. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) \\ Труды Узбекского гос. Ун-та. Нов. Серия. Вып. 61. 1956;
  5. Лев Д.Н. Из истории изучения первобытной археологии Самарканда \\ Труды СамГУ. Новая серия, вып. 182. 1970.